



## VIJDON SARATONI

### Tursunniyozov Baxtiyor Zoirovich

*Navoiy viloyati Xatirchi tumani Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi maxsus fan o'qituvchisi:*

Inson yaralibdiki mehr muhabbatga jo'sh yuraklar olamida yashashga moslashadi. Lekin shunday insonlari bo'ladiki boshqalarga mehrsiz va qisqacha qilib aytganda qo'pol munosabatda bo'ladi, shuning uchun insonni qurshab turgan oalamida unga yelkama yelka har bir ishda madadkor bo'la oladigan insonga muhtojlik sezadi, ana shu paytda biz esga oladigan eng buyuk zot Onalarimiz hayolga keladi.Ular bizning ko'z ochib ko'rganimiz, mehribon va oqko'ngil insonlarimizdanda ustun bo'lgan zot. Onalarimiz haqida qancha gapirsak ham shuncha ozligini hammamiz bilamiz, lekin shunday bo'lsa ham gapirishdan aslo to'xtamaymiz. Shunday ekan onalarimiz biz uchun Jannat kaliti ekanligini bilmaydigan insonlar ham yo'q emas. 1996-yil noyabr oyining 11-sanasida dunyoga kelib mana 27 yildirki onam har qanday sinovlarga, ta'ma toshlariga bardosh berib meni katta qildilar.Hozirgi zamon tibbiyotining ta'kidlashi yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh tug'ulayotgan bolalarni nogiron hamda majruh bo'lib qolishini yuzbor ta'kidlashadi, shundaymi yoki qandaydir ekzogen tashqi ta'sir natijasida chaqaloqlik davrimdayoq nogiron bo'lib yuribman, lekin bundan hech qachon afsuslanmayman. Maktab yoshiga yetdim o'rtoqlarim, do'stlarim ustidan kulib masxara qilgan paytlari ham bo'lgan, lekin e'tibor qilmaslikka harakat qillardim, lekin yoshim o'tgan sari bu gap otishmalar og'ir botib boshladi shunday bo'lsa ham yashashda davom etdim.

2012-2019 yillar oralig'ida kollej hamda Oliy o'quv yurtida tahsil olgan paytlarimda mendanda ahvoli og'ir insonlarni ko'rib o'zimga xulosa chiqarib yashashda davom etdim, aytishadiku "Birni ko'rib fikr qil- mingni ko'rib shukir qil" degan gapni mag'zini chaqa boshladim. Shunday insonlar ustidan kulish, masxara qilishdan ham tab tortmaydigan insonlarni ko'rib bunday yaralganimdan hech xafa bo'lmaydigan bo'ldim, qaytanga bu menga motivatsiya bo'ldi ya'ni yashishim uchun qandaydir umitni uyg'otdi desam adashmayman.

Saraton degan gapni hamma ham eshitgandir lekin u nima qanday kasallik deb so'rashsa ko'pchilik ikkilanib qolishadi. Bu tibbiy tomondan ma'lum hujayraning yemirilish holati desak tushunarli bo'lgan bo'ladi, lekin men o'z maqolamda Vijdon saratoni deya so'z ochganman nega bunday mavzu bo'yicha gap ketgan desalar aynan o'sha kezлari hamda 2019-2022 yillar o'ralig'ida men boshimga tushgan tashvishlardan xulosa qiliadigan bo'lsam vijdonini yeb qo'ygan insonlarni uchrattdim. Yaxshilik yo'lida o'z manfaatini ustun qo'yib kimgargadir yomonlik qilishlari, yaxshilik qilib yana o'sha narsani minnat qilishi, haqiqiy insoniylik hislatlarini unutub o'z dunyo qarashi bo'yicha boshqalarni ustidan kulishlik bu aqlsizlikdan boshqa narsa emas.





Hayotda o'zim uchun shunday bir misralarni shior qilib olganmanki buni maktab davrimdanoq onggimga singdirib qo'yanman. Bu buyuk Zahiriddin Muhammad Boburning misralari hisoblanadi;

Har kimki jafo qilsa, jafo topg'usidir,

Har kimki vafo qilsa, vafo topg'usidir.

Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlik har giz,

Har kimki yomon bo'lsa, jazo topg'usidir degan misralar men uchun hayot yo'llimda haqiqiy shior bo'la olganligini tan olaman albatta. Shuning uchun hayotimizda bo'layotgan voqeа hodisalarни kelib chiqishiga sababchi kim aslida o'zimiz yaxshi xabar bo'lsin, yomon xabar bo'lsin o'zimizning say harakatimizdan deb bilaman. Shunday ekan har kimni vijdonini toza tutush insonning o'z qo'lida ekanligini ta'kidlab o'tmoqchiman. Hayot sen o'ylaganchalik toza emasligini rahmatli otamni yuqotib bildim hozirda onam uchun har qanday sharoitda va vaziyatda ular uchun hamma narsaga tayyorligim muhimdir. Shunday insonlar bor ota onasini xor qilib ko'chaga chiqarib tashlashdan ham tab tortmaydigan farzandlarni ko'rib jamiyatda shunday insonlar borligiga achinib ketaman. Bunday insonlarni yer yuzi qanday ko'tarib yuribdi hayronman, lekin baribir shunday bo'lsa ham ota onalar bolam deydi yaxshi yashasin, tinch bo'lsin deb harakat qiladi.

Aslida bu insonlar biz dunyoga kelganimizda qanday xursand bo'lishgani orzu umitlarimiz mevasi deya dunyoga sig'magan insonlar hozirda uyumizni bir burchagiga sig'mayotganini tan olishimiz kerak. Bunday buyuk zotlar hech qachon qaytib kelmasligini bilsagdagina ham ularni xafa qilib ko'nglini og'ritaverishdan o'zimizni to'xtata olmaymiz, aslida ular bizning tog'imiz ishongan bog'imiz uyumiz farishtasi ekanligini juda kech anglab yetamiz. Vijdonimiz qiynalib og'ir ahvolga tushub qolganimizda hayolimizga eng birinchi ota onamiz keladi ularni mehri muhabbatini qumsab qolamiz. Vijdonni pok saqlash birovni omonatiga xiyonat qilmaslik yaqinlarini yaxshi yomon kunida birga bo'lishlik oliyjanoblikni eng yuqori cho'qqisi ekanligini hamma ham bilavermasligi eng avvalo oila muhitidagi tarbiya undan keyin esa o'rta maxsus, professional hamda oliy ta'lim orqali beriladigan ta'lim tarbiya orqali nomoyon bo'ladi. Shuning uchun maqolamni asl ma'nosi har bir oilada tarbiya olayotgan yosh kelajagimizga qanday tarbiya beryapmiz shu haqida ozroq fikr yuritsakgina ko'p narsalarga yechim topishimiz mumkindir.

Har qanday tarbiya oila muhitida zo'r bo'lsin uni tashqi muhitning hech qanday turi buza olmasligini ko'pchilik ota onalar tan olmaydi. Hozirda ota onalarimiz ishli oila tashvishlariga ko'p e'tibor bermaydiganlarni ham uchratamiz shunday oila farzandlari qayerdan tarbiya olsin albatta ko'cha ko'ydan o'rtoqlaridan oladi. Men kasbimdan faxrlanaman ya'ni pedagog bo'lganimdan afsuslanmayman lekin ozgina o'ylab ko'ring ota onalar farzandlarimiz vijdoni qora tutun bilan to'lib ketishiga aslida o'zimiz sababchi emasmizmi. Xalqimizda shunday gap bor "Qush uyasida ko'rganini qiladi" shunday ekan farzandingiz sizning aksingiz ekanligini unutmasligingizni so'rayman.



Hamisha farzandlarini o'ylaydigan kelajagi uchun o'z orzu umitlaridan vos kechishga tayyor bo'lgan ota onamiz uchun biz farzandlar ularni bir kulgusi uchun ozroq vijdonimizni uyg'otib ota onamiz uchun yaxshilik qilishga harakat qilishdan to'xtamaylik deya o'z onam uchun yozgan sherim bilan yakunlashga ruxsat bershingizni so'rab qolgan bo'lar edim.

### Onam

Dunyoga kelding-u nimani ko'rding,  
Shuncha yil yashading, orzular qilding.  
Yaxshi, yomon kuningda yoningda bo'lgan,  
Onajoningga sen nimalar qilding.

Kulding, o'ynading, sayohat qilding,  
Mehrni hamisha ko'chadan ko'rding.  
Soxta insonlarga mehringni berib,  
Onajoningga qachon mehringni berding.

Hamisha sog' bo'lsin yonimda har dam,  
Baxtiyorman, baxtliman har dam.  
Kulsin, yayrasin onajonim har dam,  
Xizmatiga tayyor Baxtiyor har dam.